



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

SERGEY YESENIN SHE'RIYATIDA TABIAT VA LIRIK QAHRAMON MUNOSABATI TALQINI

Xodjayev Siddiq Axmedovich

Farg'ona davlat universiteti, dotsent

Xudoyberganova Durdona Anvarjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sergey Yesenin she'riyatida tabiat va lirik qahramon o'rtasidagi murakkab badiiy munosabatlar tahlil qilinadi. Shoir ijodida tabiat obrazlari lirik qahramonning ichki ruhiy holatini, kechinmalari va dunyoqarashini ifodalovchi muhim estetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida tabiat, vatan, kosmik va diniy obrazlarning o'zaro bog'liqligi hamda ularning folklor an'analari va panteistik qarashlar bilan uyg'unlashuvi yoritiladi. Tahlil natijalari Yesenin she'riyatida inson va tabiat birligi g'oyasi markaziy o'rin egallashini hamda tabiat obrazlari orqali lirik qahramonning ruhiy iztiroblari va ma'naviy kechinmalari badiiy ifoda topishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Sergey Yesenin, lirik qahramon, tabiat obrazi, folklor, metafora, ruhiy konflikt.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ПРИРОДЫ И ЛИРИЧЕСКОГО ГЕРОЯ В ПОЭЗИИ СЕРГЕЯ ЕСЕНИНА

Ходжаев Сиддик Ахмедович

Ферганский государственный университет, доцент

Худойберганова Дурдона Анваржон кизи

Ферганский государственный университет, магистрантка

Аннотация

В данной статье анализируются сложные художественные взаимоотношения между природой и лирическим героем в поэзии Сергея Есенина. В творчестве поэта образы природы выступают важнейшим эстетическим средством выражения внутреннего мира, душевных переживаний и мировоззрения лирического героя. Особое внимание уделяется взаимосвязи природных, национальных, космических и религиозных образов, а также их сочетанию с фольклорными традициями и пантеистическими представлениями. Результаты исследования показывают, что идея единства человека и природы занимает центральное место в поэзии Есенина, а природные образы служат художественным средством раскрытия духовных переживаний и внутренних конфликтов лирического героя.

Ключевые слова: Сергей Есенин, лирический герой, образ природы, фольклор, метафора, духовный конфликт.

THE INTERPRETATION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN NATURE AND THE LYRICAL HERO IN THE POETRY OF SERGEI YESENIN

Siddiq Axmedovich Xodjayev

Fergana State University, Associate Professor

Xudoyberganova Durdona Anvarjon qizi

Fergana State University, Master's Student

Abstract

This article analyzes the complex artistic relationship between nature and the lyrical hero in the poetry of Sergei Yesenin. In the poet's works, images of nature serve as an essential aesthetic means of expressing the inner world, emotions, and worldview of the lyrical hero. The study explores the interconnection of natural, national, cosmic, and religious imagery, as well as their integration with folkloric traditions and pantheistic beliefs. The findings demonstrate that the idea of unity between humanity and nature occupies a central place in Yesenin's poetry, while natural imagery functions as a powerful artistic tool for revealing the spiritual experiences and inner conflicts of the lyrical hero.

Keywords: Sergei Yesenin, lyrical hero, image of nature, folklore, metaphor, spiritual conflict.

XX asr rus adabiyotida Sergey Yesenin ijodi tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi murakkab va ko'p qatlamli munosabatlarni badiiy ifodalashi bilan alohida o'rin egallaydi. Shoir poetikasida tabiat oddiy

tasvir obyekti emas. Aksincha, u lirik qahramon shaxsiyatini belgilovchi va uning ichki olamini shakllantiruvchi muhim badiiy makon sifatida namoyon bo'ladi. Ta'kidlash joizki, Yesenin she'riyatida tabiat inson ruhining davomi sifatida talqin etiladi. U lirik qahramonning hissiy holatlari va falsafiy kechinmalarini bevosita ifodalovchi vositaga aylanadi. Shu sababli shoir ijodida lirik qahramon ko'pincha ijtimoiy muhitdan ma'lum darajada begonalashgan, biroq tabiat bilan chuqur uyg'unlikda yashovchi obraz sifatida gavdalanadi. Bizning fikrimizcha, bu holat Yesenin poetikasining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, u shoirning panteistik dunyoqarashi hamda folklor va mifologik tafakkurga yaqinligi bilan izohlanadi. Tabiat unsurlari — shamol, daraxt, yomg'ir, oy, dala va turli o'simlik obrazlari — lirik qahramon uchun ruhiy o'zlikni anglash vositasiga aylanadi. Demak, Yesenin she'riyatida tabiat manzaralari hech qachon mustaqil tasvir sifatida berilmaydi. Ular doimo lirik qahramonning ichki kechinmalari bilan uyg'un holda rivojlanadi. Shu jihatdan qaraganda, lirik qahramonning tabiat bilan birligi va uning ruhiy-emotsional holati shoir ijodining markaziy g'oyaviy-estetik yo'nalishini tashkil etadi.

Lirik turdagi asarda muallif yoxud lirik qahramon tahlili muhim ahamiyatga ega bo'ladi [6; 43–44-b.]. Lirik qahramon – lirik asardagi inson timsoli, lirik kechinmalar tashuvchisidir. Lirikada lirik qahramonning ichki dunyosi birinchi o'rinda turadi [7; 25–26-b.]. She'riyatda tabiat inson ruhiyatini aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatiladi va lirikaning o'ziga xos estetik hamda ruhiy idrokini yaratadi. Ushbu maqolada tahlil qilinayotgan she'r besh banddan iborat. Har bir band lirik qahramonning ichki dunyosi, tabiat bilan uyg'unligi orqali estetik tajribasini bosqichma-bosqich ochib beradi.

Yuqoridagi she'rda tabiat lirik qahramonning hissiy holatini aks ettiruvchi fon sifatida namoyon bo'lgan edi. Ushbu she'rda esa tabiat va qahramon o'rtasidagi munosabat yanada ichki va shaxsiy tus oladi, tabiat bevosita lirik "men"ning xarakteri bilan qo'shilib ketadi. Shu bois quyidagi tahlilda tabiat obrazlari orqali shoirning o'zini anglash jarayoni yoritiladi.

"Tol bargagin yuvganda yomg'ir,
Yaproq yulib o'ynar shabboda.
Yurak ham sho'x, erka shamoldir,
Bezoriman yorug' dunyoda." [8]

She'r tabiat manzarasi bilan boshlanadi. Yomg'ir va shamol jonlantirilgan holda tasvirlanadi: yomg'ir bargni "yuvadi", shabboda esa yaproq bilan "o'ynaydi". Bu — Yesenin poetikasiga xos bo'lib, tabiatni insoniy his-tuyg'ular bilan talqin etadi.

Lirik qahramon o'z yuragini "sho'x, erka shamol"ga qiyoslaydi. Demak, uning ichki olami bevosita tabiat bilan uyg'unlashgan. Shu bilan birga, "yorug' dunyodan bezorilik" ijtimoiy hayotga nisbatan begonalikni bildiradi. Bu bandda tabiat — erkinlik va quvonch manbai, jamiyat esa ruhiy siqilish sababchisi sifatida qarama-qarshi qo'yiladi.

"Poyonsiz Rus, yashil Rossiyam,
Axir men bir kuychi bolang-da.
Bu jonivor she'rimni men ham
Yalpiz berib boqdim dalangda." [8]

Mazkur bandda tabiat va vatan tushunchalari bir butun holda beriladi. "Yashil Rossiya" obrazi vatanni siyosiy makon emas, balki tabiatli, tirik organizm sifatida idrok etishdan dalolat beradi. Lirik qahramon o'zini shu tabiat bag'rida ulg'aygan "kuychi bola" deb ataydi.

"She'rni jonivor"ga qiyoslash juda muhim metaforadir. Bu orqali shoir ijodni sun'iy intellektual jarayon emas, balki tabiiy, tirik mavjudot sifatida ko'rsatadi. "Yalpiz berib boqish" obrazi esa shoir ilhomi aynan dala, o'simliklar va qishloq muhiti bilan oziqlanishini anglatadi. Demak, tabiat — shoir ijodining manbai.

"Oy xumchasi falakda go'yo
Qayin suti bilan to'ladir.
Qora cherkov sukunat aro
Tomog'imdan bo'g'moq bo'ladir." [8]

Bu bandda kosmik va diniy obrazlar xalqona tasavvur asosida beriladi. Oy "xumcha"ga o'xshatiladi — bu folklorona, maishiy metafora bo'lib, osmon jismini inson hayotiga yaqinlashtiradi. Qayin suti obrazi esa rus xalq ongida ona, poklik va tabiat ramzi hisoblanadi.

Ammo bandning ikkinchi yarmida keskin ohang paydo bo'ladi. She'rda "qora cherkov" obrazi tabiatga zid bo'lgan bosim va zulm timsoli sifatida talqin etiladi. Cherkov sukunati lirik qahramonni bo'g'ayotgandek tasvirlanadi. Bu yerda shoir tabiat erkinligi bilan rasmiy madaniyat o'rtasidagi ziddiyatni ochib berishga harakat qilgan.

"Ammo qo'rqinch bilmas bu jonim,

Sharpalarga tik boqar ko‘zim.
Tomirimda qaroqchi qoni,
Bir yo‘lto‘sar o‘g‘riman o‘zim.” [8]

Ushbu bandda lirik qahramon xarakteri to‘liq ochiladi. “Qo‘rqinch bilmas jon” va “sharpalarga tik boqish” obrazlari shoirning jasoratli, yovvoyi ruhini ifodalaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Qaroqchi qon” metaforasi ijtimoiy jinoyatchilik emas, balki tabiatga xos isyonkorlik va mustaqillik ramzlaridan biridir.

Yesenin bu yerda o‘zini sivilizatsiya qoidalariga bo‘ysunmaydigan, tabiat qonunlari bilan yashaydigan erkin shaxs sifatida ko‘rsatadi. Demak, tabiatga oshno shaxs — jamiyat me‘yorlariga moslashmaydigan erkin ruh egasidir.

“Chechak terib, ko‘ngilni xushlab
Yurganimga kulib qarashar.
Asli menga oybolta ushlab,
Yo‘lda odam ovlash yarashar.” [8]

Bu bandda jamiyat va lirik qahramon qarama-qarshiligi yanada kuchayadi. Qahramonning chechak terib yurishi — uning tabiatga yaqin, beg‘ubor holatini bildiradi. Ammo jamiyat buni masxara qiladi.

“Oybolta” va “odam ovlash” obrazlari esa kinoyaviy xarakterga ega. Shoir jamiyat undan zo‘ravon, shafqatsiz bo‘lishni kutayotganini tanqid qiladi. Bu orqali Yesenin tabiatga oshno shaxsning jamiyat tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinishini ko‘rsatadi.

“Endi netay, qochay qay yoqqa,
She‘r dashtida quvg‘indi boshim.
Mahkum bo‘ldim aylantirmoqqa
Dostonlarning tegirmon toshin.” [8]

Mazkur band shoir taqdirining fojiali jihatini ochadi. “She‘r dashti” metaforasi ijodni cheksiz, ammo xavfli makon sifatida tasvirlaydi. Lirik qahramon bu makonda quvg‘inda — ya‘ni jamiyat tomonidan qabul qilinmagan.

“Dostonlarning tegirmon toshi” obrazida ijod jarayonining mashaqqatlari ifodalanadi. Shoir ijod qilishga mahkum — bu uning tanlovi emas, balki taqdiridir. Tabiat bilan uyg‘unlik unga ilhom bersa-da, tinchlik bermaydi.

“Bul ajabdir dunyo ishlari,
Shoir bo‘lmoq ekan peshonam.
Kuyla, shamol, sendek sarsari
Bezoriman qo‘shig‘imda ham.” [8]

So‘nggi band umumlashtiruvchi xulosa xarakteriga ega. Shoirlik “peshona” sifatida talqin qilinadi, ya‘ni bu ilohiy yoki tabiiy hukmdir. Lirik qahramon shamolga murojaat qiladi — shamol uning ruhiy egizagi, tabiatdagi timsolidir.

“Bezoriman qo‘shig‘imda ham” misrasi shoirming ichki fojiasini ifodalaydi: u tabiat bilan uyg‘un bo‘lsa-da, bu uyg‘unlik ham uni qutqara olmaydi. Tabiatga oshno shaxsning fojiasi aynan shundaki, u jamiyatda ham, o‘z qo‘shig‘ida ham tinchlik topa olmaydi.

Metodologiya: Tadqiqot ishida Sergey Yesenin she‘riyatida tabiat va lirik qahramon munosabatini tahlil qilishda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-tahliliy metod – XX asr rus adabiy jarayoni, xususan, Yesenin ijodining shakllanish sharoitlari va poetik xususiyatlarini tarixiy kontekstda o‘rganish uchun qo‘llanildi.

Qiyosiy metod – shoir ijodidagi tabiat obrazlari va lirik qahramon talqinini boshqa adabiy yo‘nalishlar bilan qiyoslash, shuningdek, ichki poetik ziddiyatlarni aniqlashda foydalanildi.

Matn tahlili metodi – tanlangan she‘rlar asosida tabiat obrazlari, metaforik tizim va lirik qahramonning ruhiy holati badiiy qatlamlarda tahlil qilindi.

Interpretatsion (talqin) metod – she‘riy matnlardagi ramziy, kosmik va folklor obrazlarning ma‘nosi ochib berildi hamda ularning lirik qahramon psixologiyasi bilan bog‘liqligi asoslandi.

Tadqiqot obyekti sifatida Sergey Yesenin she‘riy merosi, xususan, tabiat va inson ruhiyati munosabati aks etgan lirik asarlar tanlab olindi.

Muhokama: Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sergey Yesenin she‘riyatida tabiat obrazi lirik qahramonning ichki ruhiy olamini ifodalovchi markaziy estetik unsur hisoblanadi. Shoir ijodida tabiat nafaqat fon, balki inson ruhiyati bilan bevosita uyg‘unlashgan jonli badiiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Yesenin lirikasida lirik qahramon ko‘pincha tabiat bilan bir butunlikda

tasvirlanadi va bu holat uning ichki erkinlikka intilishi, jamiyatdan begonalashuvi hamda ruhiy iztiroblari bilan bog'liqdir.

Shuningdek, she'riy matnlarda tabiat obrazlari orqali lirik qahramonning psixologik holati bosqichma-bosqich ochib beriladi. Yomg'ir, shamol, oy, dala va o'simliklar obrazlari uning ruhiy kechinmalarini ifodalovchi asosiy badiiy vositalar sifatida xizmat qiladi. Natijalar shuni ham ko'rsatadiki, Yesenin ijodida tabiat va inson o'rtasidagi munosabat faqat estetik emas, balki falsafiy mazmunga ham ega bo'lib, u panteistik dunyoqarash bilan chambarchas bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, she'r lirik qahramonning tabiat bilan uyg'unligini hamda uning ruhiy-emotsional jarayonini chuqur va ta'sirchan tarzda ochib beradi. Har bir band lirik subyektning ichki dunyosini bosqichma-bosqich yoritib, tabiatning turli jihatlarini – vizual tasvir, sezgi va musiqiy ohangni – uning ruhiy holati bilan uyg'unlashtiradi. Shu jihatdan qaraganda, asarning badiiy tuzilishi estetik go'zallik va ichki uyg'unlikni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

She'rda qo'llangan badiiy vositalar – metafora, tashbeh, takror, personifikatsiya va ritmik barqarorlik – lirik qahramonning ichki olamini yanada boyitadi. Ular orqali tabiat faqat tasviriy emas, balki ruhiy-emotsional kontekstda ham idrok etiladi.

Bizning fikrimizcha, lirik qahramon bu jarayonda passiv kuzatuvchi emas, balki faol idrok etuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Tabiatning har bir unsuri – yomg'ir, shamol, oy, dala va o'simliklar obrazlari – uning ruhiy-emotsional holatini ifodalovchi badiiy vositaga aylanadi. Shu orqali Yesenin poetikasining muhim xususiyatlari, ya'ni musiqiylik, ruhiy uyg'unlik va estetik boylik yorqin aks etadi.

Demak, she'rda lirik subyektning tabiat bilan uyg'unligi nafaqat hissiy-estetik darajada, balki falsafiy jihatdan ham talqin etiladi. Inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, ruhiy sokinlik va estetik zavq o'zaro bog'liq holda ifodalanadi. Natijada asar Yesenin poetikasining nozik jihatlarini namoyon etib, lirik qahramonning ichki dunyosini mukammal ochishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Есенин С.А. She'rlar va dostonlar to'plami. – Moskva: Adabiyot nashriyoti, 1988.
2. Есенин С.А. Полное собрание сочинений: в 6 т. – Москва: Наука, 1977–1980.
3. Виноградов В.В. Русский поэтический язык. – Москва: Высшая школа, 1972.
4. Гуковский Г.А. Русская поэзия XX века. – Москва: Просвещение, 1989.
5. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970.
6. То'rayeva S. O'zbek adabiyotida lirik asarlar tahlili. – Rossiya, 2025.
7. Ro'ziyeva D. Adabiyotda lirika va lirik qahramon tushunchasi // Education Research in Universal Sciences. – 2023.
8. Sergey Yesenin. She'rlar // Xurshid Davron kutubxonasi. – URL: <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/3-oktabrda-tugilgan-sergey-yesenin.html>